INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR (Research bib) – 7,293

HAYOT UCHUN MUHIM A’ZO BU - JIGAR

Xusanova Malika To’xtamurod qizi

Xolmurodova Zarina Oybek qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi

Anotatsiya: Mazkur maqolada tirik organizmlaning ichki organlaridan biri jigar haqida haqida fikr yuritilgan. Jigar tanamizdagi eng katta ahamiyatga ega bo‘lgan organlaridan biri. U hazm qilish jarayonida ishtirok etadi, organism uchun zarur bo‘lgan moddalarni sintezlaydi. Bundan tashqari jigar moddalar almashinuvida hosil bo’ladigan yoki tashqaridan kirgan zaharli moddalarni zararsizlantirib himoya vazifasini bajaradi.

Kalit so’zlar: Jigar, safro, jigar qopqasi, o’t yo’llari, sirroz , glukoza , glikogen.

Jigar organizmdagi eng katta bez (vazni 1200—2200 g). Qorin bo‘shlig‘ida, diafragmaning tagida, o‘ng qovurg‘alar va qisman chap qovurg‘alar ostida yotadi. Rangi qizg‘ish-qo‘ng‘ir, kattaroq o‘ng bo‘lagi bilan kichikroq chap bo‘lagi bor. O‘rta qismining pastki yuzasidagi ko‘ndalang chuqurcha Jigar darvozasi yoki qopqasi deb ataladi. Shu joydan Jigarga arteriya, darvoza venasi, nervlar kiradi va jigarning o‘t yo‘li, jigar venasi chiqadi. Bu o‘t yo‘li o‘t pufagidan chiqqan yo‘lga qo‘shilib, o‘n ikki barmoq ichakka quyiladigan umumiy o‘t yo‘lini hosil qiladi.

Jigar organizmda 500 dan ortiq funksiyani bajaradi. Jigarning asosiy vazifasi filtrlash bo’lib, u qon orqali kelgan zararli moddalarni qondan tozalaydi. Unda oshqozon, ingichka ichak, taloq, oshqozon osti bezi va o’t pufagidan qon keladi. Jigarda oshqozon tizimi, immunet tizimi va endokrin tizimi mavjud.

Safro jigarda hosil bo'ladi va uning ovqat hazm qilishdagi ishtiroki xilma-xildir. Safro yog'larni emulsiya qiladi, ular lipaza bilan gidrolizlanadigan sirtni oshiradi; lipid gidroliz mahsulotlarini eritadi, ularning so'rilishini va enterotsitlarda triglitseridlarni qayta sintezini ta'minlaydi; oshqozon osti bezi va ichak fermentlarining, ayniqsa lipazaning faolligini oshiradi.Safro, shuningdek, o't shakllanishi, o't ajralishi, motor va sekretor faolligi stimulyatori bo'lib, tartibga soluvchi rolni ham bajaradi. ingichka ichak, epiteliositlarning (enterositlar) ko'payishi va desquamatsiyasi. Safro nafaqat o'n ikki barmoqli ichakka kiradigan oshqozon tarkibining kislotaliligini kamaytirish, balki pepsinni inaktivatsiya qilish orqali ham me'da shirasining ta'sirini to'xtatishga qodir. Safro bakteriostatik xususiyatlarga ega. Uning yog'da eriydigan vitaminlar, xolesterin, aminokislotalar va kaltsiy tuzlarini ichakdan so'rilishidagi roli muhim ahamiyatga ega.

Moddalar sintezi. Jigar qonda CO 2 , oqsil va lipidlarni sintezlaydi, ular hazm qilish paytida ovqat tarkibidagi karbongidratlarning parchalaydi. Hosil bo’lgan glukozani o’zida glikogen sifatida saqlaydi. Glukoza kerak bo’lganda, jigar o’zida saqlagan glikogenni glukozaga aylantiradi.

Toksik funksiyasi: Organizmga tashqi muhitdan turli xil zararli moddalar kiradi va ichki muhitdagi turli xil reaksiyalar natijasida toksik moddalar ishlab chiqiladi.Organizmning bunday zaharli moddalar bilan kurashuvchi bir qancha reaksiyalarga ega bo’lgan organ bu – jigar

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR (Research bib) – 7,293

hisoblanadi.

Jigar hujayralariga zarar yetishiga quyudagi omillar sabab bo'lishi mumkin:

– Lipid almashinuvining buzilishi: natijada jigar hujayralarida yog' to'planib qoladi. Buning oqibatida birinchi navbatda steatoz, so'ngra steatogepatit rivojlanadi.

– Ko'p miqdorda glukoza va fruktoza istemol qilish. Barcha uglevodlar orasida sof glukoza va fruktoza tezda yog' kislotalarga aylanib, jigarda saqlanish xususiyatiga ega.

– Genetik toplanish kasalliklari. Masalan, Vilsov-Konavalov kasalligiga mis metobolizmi buziladi va u jigar hujayralarida to'plana boshlaydi.

– Jigar ferment tizimlarining irsiy zaifligi jigar organining jiddiy kasallanishiga olib keladi.

– Turli etiologiyali gepatitlar: virusli, toksik (dori hamda alkogol), ishemik, jigarning yallig'lanishio'tkir yoki surunkali kechishi mumkin.

– Sirroz: toksik moddalarning jigarda doim ta'siri natijasida kelib chiqadi, nekrotik jarayonlar, qon kasalliklari, nasliy kasalliklar natijasida.

– Jigarda kuzatiladian o'sma kasalliklari: jigar yomon sifatli o'smalari, kistalar, to'qima absesi.

– Jigar to'qimalari infiltratsiyasi: amiloidoz, glikogenez, yog'li distrofiya, granulematoz, limfomalar natijasida

– Jigarning funksional kasalliklari: Jilber, Dubin-Jonson, Kligler-Nayara sindromi.

– Jigar ichi o't yo'llari kasalliklari: xolongit, o't yo'llarida yallig'lanish jarayonlari, o't-tosh kasalliklari natijasida o't yo'llari o'tkazuvchanligi buzilishi to'qimalar chandiqlanishi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, organismning eng muhim a'zosi jigar hisoblanadi. U ovqat hazm qilishda , moddalar almashinuvida , metabolizmda , organizmni himoya qilishda ishtirok etadi. Undan tashqari odam o'zini har qanday kasalliklardan asrashi lozim. Chunki, har bir kasallik uchun iste'mol qilinadigan dorilar jigar yoydamida parchalanib , keyin kerakli bo'lgan a'zolarga ta'sir ko'rsatadi. Jigar atrof- muhitdan hamda organizmda ishlab chiqariladigan zararli moddalardan organizmni himoyalaydi.Ushbu organ bo'lmasa inson tanasi ishlamaydi. Shu sababli tabiatni ifloslanishini oldini olish, atrof-muhit salbiy ta'sirlari tufayli rganism zararlanishini oldini olish zarur. Atrof — muhitning antropogen omil ta'sirida ifloslanishi bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu o'z navbatida inson organizmiga jiddiy ta'sir qiladi. Hozirgi kunda tobora avj olgan ifloslanishlar butun dunyoda har hil kasalliklarni keltirib chiqarishda asosiy omil bo'lib kelmoqda. Birgina O'zbekiston misolida qaraydigan bo'lsak, atmosferaning 40 % gacha bo'lgan qismii zaharli gazlar yani avtomobil dvigatellari tomonidan ishlab chiqarilayotgan tutunlar tashkil etishini guvohi bo'lamiz. Bu tutunlar o'z-o'zida organizmning nafas olish sistemasiga va boshqa organlarga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Buning natijasida turli kasalliklarni vujudga kelishini kuzatishimiz mumkin. O'pka yallig'lanishi, nafas olish kasalliklari, jigar hujayralarining yallig'lanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov Nosir Komilovich. A 98 Odam anatomiyasi: Atlas/N. K. Ahmedov; [Ma'sul moharrir: T. A. Soatov]. J. I.-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. -264 b.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR (Research bib) – 7,293

2. Gadayev Abdug'offor. Ichki kasalliklar prapadevtikasi [Matn]: tibbiy- ilmiy nashr / A.Gadayev , M. SH. Karimov, X. S. Axmedov. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022, 712 b.

3. Юлдашева, М. Б. Jigar, uning inson organizmidagi vazifalari va ahamiyati / М. Б. Юлдашева, М. Ж. Парпиева, М. И. Саттарова, Д. С. Туйчиева. — Текст : непосредственный /